Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutiga press-tur tashkil etildi

Bugun, 22-aprel kuni Fanlar akademiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutiga ommaviy axborot vositalari vakillari uchun press-tur tashkil etildi.




O’zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti yirik ilmiy muassasalardan biri hisoblanadi. Mazkur muassasada fizikaviy elektronika, fotonika, issiqlik fizikasi, lazer fizikasi, yangi materiallar sintezi va nanotexnologiyalar yo’nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib boriladi.

Dastlab press-tur ishtirokchilari uchun matbuot anjumani o’tkazildi va unda Institut faoliyati haqida umumiy ma’lumot berildi.



Shundan so’ng jurnalistlar Superkompyuterlar klasteri – FISTUz (Fast Intelligent Simulation Toll of Uzbekistan), Amaliy nanotexnologiyalari laboratoriyasi, Ilmiy asbob uskunalardan jamoaviy foydalanish markazi, Kondentsiyalangan muhit optikasi laboratoriyasi hamda Nanotarkibiy materiallarda optik va elektron jarayonlar laboratoriyasi faoliyati bilan yaqindan tanishdilar.







Muassasadagi FISTUz da superkompьyuterlar klasteri yordamida kam ishchi kuchi sarflagan holda qisqa muddat ichida fizik va kimyoviy jarayonlarni atomar darajada modellashtirish imkoniyati mavjud. 32 ta Worker 1 ta Builder va 2 ta Master kompyuterlaridan tashkil topgan.

Institutda tashkil etilgan “Amaliy nanotexnologiyalar (ANT)” ilmiy laboratoriyasi “Yuqori samaradorlikka ega proton almashinuvchi membranalarini sintezlash”, “Nanokatalizatorlar: shakllanishi, strukturasi, o’lchov effektlari va ularning uglerod nanomateriallari sintezi jarayonlariga ta’siri” mavzularida fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, “Plazmadan foydalanib ammoniy perrenatidan reniy metallini olish texnologiyasini yaratish” va “Qattiq qotishmali kesuvchi instrumentlar tayyorlash uchun volfram karbidi nanokukunlarini olish texnologiyasini yaratish” bo’yicha amaliy tadqiqotlar bajarilmoqda.

Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, mazkur laboratoriyada Moddalarni o’stirish klasteri tashkil etilgan. Ushbu klaster 2 ta modul va transport robot tizimidan iborat bo’lib, PEALD, PECVD usulida o’ta katta aniqlikda murakkab strukturalarni hosil qilish va o’ta yupqa qoplamalar o’stirish uchun ishlatiladi. Klasterda

o’sish jarayonini bevosita kuzatib borish uchun interferometr va ellipsometr o’rnatilgan. Ular yordamida sirt reaktsiyalarining oraliq mahsulotlari va reaktsiyaning amalga oshish yo’nalishlarini katta aniqlikda kuzatsa bo’ladi.

Shuningdek, Institutida Ilmiy asbob uskunalardan jamoaviy foydalanish markazi ham tashkil etilgan. Ushbu Markaz eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan bo’lib, mazkur markaz faoliyatidan respublikada ilm bilan shug’ullanayotgan barcha foydalanish mumkin.

Ma’lumot o’rnida, *Institut tarkibida 9 ta ilmiy laboratoriya va 1 ta markaz mavjud. Muassasada jami 212 nafar, shundan 105 nafari ilmiy xodimlar 1 nafar akademik, 22 nafar fan doktorlari, 35 nafar fan nomzodlari faoliyat yuritadi, 18 nafar doktorantlar va 5 nafar stajer-tadqiqotchilar o’z ilmiy ishlarini olib bormoqdalar.*

http://academy.uz/uz/photo-gallery/ion-plazma-va-lazer-texnologiyalari-institutiga-press-tur-fotolavha